

MINTAQADA TADBIRKORLIK SALOHIYATINING KORXONALAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA HOLATI

Madaminov Damir Abduraxmanovich

Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasida tadbirkorlik subyektlarining holati korxonalar demografiyasi yondashuvi asosida tahlil qilindi. Tadqiqotda 2014-2025-yillarga oid statistik ma’lumotlar asosida ro‘yxatdan o‘tgan, faol, nofaol, yangi tashkil etilgan va tugatilgan korxonalar dinamikasi baholandi. Tarmoqlar kesimida tadbirkorlik subyektlarining tarkibi aniqlanib, ularning iqtisodiy faollikka ta’siri o‘rganildi. Natijalar xizmatlar sohasi ustunligini va ayrim salbiy demografik ko‘rsatkichlarning mavjudligini ko‘rsatdi. Ekonometrik tahlil asosida korxonalar soni va tadbirkorlik subyektlari o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlandi. Olingan xulosalar asosida mintaqada tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: korxonalar demografiyasi, tadbirkorlik subyektlari, faol va nofaol korxonalar, yangi tashkil etilgan korxonalar, tugatilgan korxonalar, iqtisodiy faollik, mintaqaviy rivojlanish

Аннотация

В статье проанализировано состояние предпринимательских субъектов Республики Каракалпакстан на основе подхода демографии предприятий. В исследовании оценена динамика зарегистрированных, действующих, недействующих, вновь созданных и ликвидированных предприятий за 2014-2025 годы. Определена отраслевая структура субъектов предпринимательства и их влияние на экономическую активность региона. Результаты показали доминирование сферы услуг и наличие отдельных негативных демографических тенденций. С использованием эконометрических методов выявлена взаимосвязь между числом предприятий и предпринимательских субъектов. На основе полученных результатов разработаны практические предложения по развитию предпринимательства в регионе.

Ключевые слова: демография предприятий, предпринимательские субъекты, действующие предприятия, недействующие предприятия, вновь созданные предприятия, ликвидированные предприятия, экономическая активность, региональное развитие

Abstract

This article analyzed the status of entrepreneurial entities in the Republic of Karakalpakstan using the enterprise demography approach. The study evaluated the dynamics of registered, active, inactive, newly established, and liquidated enterprises for the period 2014-2025. The sectoral structure of entrepreneurial entities and their impact on regional economic activity were examined. The results indicated the dominance of the service sector and the presence of certain negative demographic trends. Econometric analysis revealed a strong relationship between the number of

enterprises and entrepreneurial entities. Based on the findings, practical recommendations for the development of entrepreneurship in the region were proposed.

Keywords: enterprise demography, entrepreneurial entities, active enterprises, inactive enterprises, newly established enterprises, liquidated enterprises, economic activity, regional development

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiy tizimda tadbirkorlik faoliyati hududiy rivojlanishni ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida qaraladi. Tadbirkorlik subyektlarining miqdoriy va tarkibiy ko'rsatkichlari ishlab chiqarish hajmi, xizmatlar rivoji hamda mehnat resurslarining samarali bandligini belgilaydi. Shu bois ularning rivojlanish darajasini baholashda an'anaviy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda korxonalar demografiyasi yondashuvi keng qo'llaniladi. Mazkur yondashuv iqtisodiyotda ro'yxatdan o'tgan, faoliyat yuritayotgan, vaqtincha faoliyati to'xtagan, yangi tashkil etilgan va tugatilgan subyektlar holatini tizimli ravishda o'rganish imkonini beradi.

Korxonalar demografiyasi iqtisodiy jarayonlarning dinamik xususiyatini ochib berib, bozordagi kirish va chiqish jarayonlarini aks ettiradi. Bu orqali tadbirkorlik muhitining barqarorligi, resurslardan foydalanish darajasi hamda iqtisodiy tizimning moslashuvchanligi haqida xulosa chiqarish mumkin. Ayniqsa, hududlar kesimida bunday tahlil o'tkazish mavjud imkoniyatlar va cheklovlarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida tadbirkorlik subyektlarining shakllanishi va ularning tarmoqlar bo'yicha taqsimoti hududiy iqtisodiy rivojlanishning o'ziga xos jihatlari ifodalaydi. Statistik ma'lumotlarga asoslangan holda korxonalar demografiyasining asosiy ko'rsatkichlari o'rganilib, tadbirkorlik faoliyatidagi tarkibiy o'zgarishlar baholandi. Ushbu yondashuv mintaqadagi iqtisodiy faollik darajasini aniqlash, resurslar harakatini tahlil qilish hamda tadbirkorlikni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini asoslash imkonini beradi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Tadbirkorlik salohiyati va korxonalar demografiyasi masalalari iqtisodiy adabiyotlarda keng o'rganilgan bo'lib, ushbu yo'nalish mintaqaviy rivojlanish nazariyasi bilan uzviy bog'liq holda shakllangan. Xususan, G. Becker va T. Schultz tomonidan ishlab chiqilgan nazariyalarda inson kapitali va tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy o'sishning muhim omili sifatida talqin qilingan [1; 2]. Keyingi tadqiqotlarda tadbirkorlik subyektlari faoliyatining natijaviyligi ularning soni bilan emas, balki samaradorligi va barqarorligi bilan baholanishi asoslab berilgan.

Mintaqaviy iqtisodiyot rivoji nuqtai nazaridan A.M. Sadykov va Sh.X. Nazarov ilmiy ishlarida hududiy salohiyatni baholashda korxonalar tarkibi, ularning faoliyat darajasi hamda iqtisodiy muhit bilan bog'liqligi asoslab berilgan [3; 4]. Ularning yondashuvlarida tadbirkorlik subyektlarining tarmoqlar bo'yicha taqsimoti va iqtisodiy faolligi hududiy rivojlanishning asosiy ko'rsatkichlaridan biri sifatida ko'rib chiqilgan.

Xalqaro tadqiqotlarda esa korxonalar demografiyasi tushunchasi alohida yo'nalish sifatida rivojlangan. Szerb L., Acs Z.J. va boshqa mualliflar tomonidan ishlab

chiqilgan Regional Entrepreneurship and Development Index (REDI) modeli hududiy tadbirkorlik salohiyatini kompleks baholash imkonini yaratdi [7]. Ushbu yondashuvda yangi tashkil etilgan, faoliyat yuritayotgan va tugatilgan korxonalar dinamikasi tadbirkorlik muhitining sifat ko'rsatkichlari bilan bog'liq holda tahlil qilindi.

Shuningdek, UNCTAD hisobotlarida ishlab chiqarish salohiyati va tadbirkorlik rivoji o'rtasidagi bog'liqlik asoslab berilgan bo'lib, unda tadbirkorlik subyektlarining barqaror faoliyati investitsiya muhiti, infratuzilma va moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlari bilan belgilanadi [8].

Mahalliy tadqiqotlarda B.J. Myrzanov va T.M. Tadjiev ishlari Qoraqalpog'iston Respublikasida sanoat va tadbirkorlik salohiyatini baholashga bag'ishlangan bo'lib, unda hududiy tarkibiy o'zgarishlar va iqtisodiy omillarning ta'siri tahlil qilingan [5]. Shuningdek, tadbirkorlikni rivojlantirishning mikroiqtisodiy asoslari va hududiy o'sish omillari Nizomov A.B., Norova S.Yu. kabi olimlar tomonidan yoritilgan [11].

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda mintaqada tadbirkorlik salohiyatini baholashda korxonalar demografiyasi yondashuvi qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida 2014-2025-yillarga oid rasmiy statistik ma'lumotlar asosida ro'yxatdan o'tgan, faol, nafaol, yangi tashkil etilgan va tugatilgan tadbirkorlik subyektlari dinamikasi tahlil qilindi. Tarmoqlar kesimida tarkibiy o'zgarishlarni aniqlash uchun qiyosiy va strukturaviy tahlil usullaridan foydalanildi. Korxonalar soni va tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi bog'liqlikni baholashda ekonometrik regressiya modellari qo'llanildi. Olingan natijalar asosida tadbirkorlik faoliyati rivojlanish tendensiyalari aniqlanib, ularning mintaqaviy iqtisodiyotga ta'siri tizimli yondashuv asosida umumlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadbirkorlik salohiyati mintaqaviy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va ish bilan bandlikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Bunda tadbirkorlikning ishlab chiqarish ko'lamini va ularni aks ettiruvchi mezonlar qatori, korxonalar demografiyasi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, korxonalar sonining o'zgarishi bilan tadbirkorlik subyektlarining natijaviy ko'rsatkichlarida ham ijobiy o'zgarishlar yuz beradi. Shu bois, Qoraqalpog'iston Respublikasida tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faollik darajasini ko'rsatuvchi mezonlarini tadqiq qildik.

1-jadval.

Qoraqalpog'iston Respublikasida tadbirkorlik subyektlarining jami korxonalaridagi ulushi dinamikasi (jamiga nisbatan)¹

| Ko'rsatkich nomi | 2014-yil | 2015-yil | 2016-yil | 2017-yil | 2018-yil | 2019-yil | 2020-yil | 2021-yil | 2022-yil | 2023-yil | 2024-yil | 2025-yil | O'rtacha |
|--|----------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|
| Ro'yxatdan o'tgan iqtisodiyotdagi korxonalar | 13177 | 13601 | 13596 | 13720 | 14381 | 16031 | 18834 | 22667 | 24855 | 27903 | 32547 | 32810 | X |

¹ Qoraqalpog'iston Respublikasi Statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

| Ko'rsatkich nomi | 2014-yil | 2015-yil | 2016-yil | 2017-yil | 2018-yil | 2019-yil | 2020-yil | 2021-yil | 2022-yil | 2023-yil | 2024-yil | 2025-yil | O'rtacha |
|--|----------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|
| Ro'yxatdan o'tgan tadbirkorlik subyektlari | 10173 | 10609 | 10617 | 10331 | 11076 | 12364 | 15050 | 18923 | 21048 | 24006 | 28513 | 28746 | X |
| Tadbirkorlik subyektlarining jami korxonalaridagi ulushi (ro'yxatdan o'tgan) | 77,2 | 78 | 78,1 | 75,3 | 77 | 77,1 | 79,9 | 83,5 | 84,7 | 86 | 87,6 | 87,6 | 81 |
| Faol bo'lgan iqtisodiyotdagi korxonalar | 11306 | 12234 | 12552 | 12946 | 13742 | 15590 | 18404 | 21968 | 23721 | 26692 | 25928 | 21001 | X |
| Faol bo'lgan tadbirkorlik subyektlari | 8383 | 9327 | 9642 | 9638 | 10539 | 11985 | 14677 | 18288 | 19998 | 22863 | 22066 | 17180 | X |
| Tadbirkorlik subyektlarining jami korxonalaridagi ulushi (faol) | 74,1 | 76,2 | 76,8 | 74,4 | 76,7 | 76,9 | 79,7 | 83,2 | 84,3 | 85,7 | 85,1 | 81,8 | 79,6 |
| Nofaol bo'lgan iqtisodiyotdagi korxonalar | 1871 | 1367 | 1044 | 774 | 639 | 441 | 430 | 699 | 1134 | 1211 | 6619 | 11809 | X |
| Nofaol bo'lgan tadbirkorlik subyektlari | 1790 | 1282 | 975 | 693 | 537 | 379 | 373 | 635 | 1050 | 1143 | 6447 | 11566 | X |
| Tadbirkorlik subyektlarining jami korxonalaridagi ulushi (nofaol) | 95,7 | 93,8 | 93,4 | 89,5 | 84 | 85,9 | 86,7 | 90,8 | 92,6 | 94,4 | 97,4 | 97,9 | 91,9 |
| Yangi tashkil etilgan iqtisodiyotdagi korxonalar | 1431 | 1315 | 1201 | 1359 | 1799 | 2636 | 3858 | 4568 | 4491 | 4472 | 6436 | 3254 | X |
| Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari | 1358 | 1272 | 1146 | 1300 | 1648 | 2177 | 3645 | 4440 | 4308 | 4308 | 6247 | 3102 | X |
| Tadbirkorlik subyektlarining jami korxonalaridagi ulushi (yangi tashkil etilgna) | 94,9 | 96,7 | 95,4 | 95,7 | 91,6 | 82,6 | 94,5 | 97,2 | 95,9 | 96,3 | 97,1 | 95,3 | 94,4 |
| Tugatilgan iqtisodiyotdagi korxonalar | 1150 | 911 | 1214 | 1275 | 1161 | 996 | 1056 | 750 | 2317 | 1454 | 1903 | 2830 | X |
| Tugatilgan tadbirkorlik subyektlari | 1086 | 846 | 1154 | 1138 | 937 | 902 | 959 | 580 | 2199 | 1382 | 1851 | 2776 | X |
| Tadbirkorlik subyektlarining jami korxonalaridagi ulushi (tugatilgan) | 94,4 | 92,9 | 95,1 | 89,3 | 80,7 | 90,6 | 90,8 | 77,3 | 94,9 | 95 | 97,3 | 98,1 | 91,4 |

Mintaqada 2014-2025-yillar davomida ro'yxatdan o'tgan tadbirkorlik subyektlarining jami korxonalaridagi ulushi barqaror o'sish tendensiyasini

ko'rsatmoqda. Jumladan, 2014-yilda ushbu ko'rsatkich 77,2 foizga teng bo'lib, 2025-yilda 87,6 foizga o'sgan.

Mazkur ko'rsatkichning o'rtacha qiymati 2014-2025-yillar bo'yicha 81,0 foizni tashkil qilgan (1-jadval). Qoraqalpog'iston iqtisodiyotida tadbirkorlik subyektlarining barqaror o'sish tendensiyasi jami korxonalarda tadbirkorlik ulushining kengayishigina emas, balki ularning faoliyati samaradorligi va bozordagi ulushi ham ortib borishini ko'rsatadi.

Mintaqada faol tadbirkorlik subyektlarining jamidagi ulushi ham 2014-2025-yillar davomida sezilarli o'sishga ega bo'lgan. Jumladan, 2014-yilda faol korxonalaridagi tadbirkorlik ulushi 74,1 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2025-yilda 81,8 foizga yetdi. Bu tendensiya Qoraqalpog'istonda tadbirkorlik samaradorligini va ishbilarmonlik muhitining yaxshilanib borayotganligi bilan bog'liq.

Nofaol korxonalarda esa tadbirkorlik subyektlari ulushi boshida yuqori darajada (2014-yilda 95,7 foiz) bo'lgan, keyin esa, 2017-2018-yillarda kamayish kuzatilgan va yana o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. 2025-yilda nofaol korxonalaridagi tadbirkorlik ulushi 97,9 foizni tashkil qilib, tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy tizimda ustun ahamiyatini ko'rsatmoqda. Bu holat, tadbirkorlik faoliyatining uzluksizligini va bozordagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanayotganligini aks ettiradi.

Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasida yangi tashkil etilgan korxonalarda tadbirkorlik subyektlari ulushi yuqori darajada saqlangan. 2014-yilda 94,9 foiz bo'lgan ko'rsatkich 2025-yilda 95,3 foizga yetgan. Bu natija Qoraqalpog'istonda yangi tadbirkorlik faoliyatining ustuvorligini va ishbilarmonlik muhiti samaradorligining ijobiy o'zgarishga egaligini ko'rsatmoqda. Yangi korxonalarda tadbirkorlik subyektlari ulushining yuqori darajada saqlanishi, mintaqada tadbirkorlikning strategik ahamiyat kasb etishini ham ko'rsatadi.

Shu bilan birga, mintaqada tugatilgan korxonalarda tadbirkorlik subyektlari ulushi ham yuqori bo'lib, 2014-yilda 94,4 foiz, 2025-yilda esa 98,1 foizni tashkil qildi. Bu holat, bozordagi raqobat va iqtisodiy barqarorlikni saqlashda tadbirkorlik subyektlari sonini izchil oshib borishini ta'minlashni talab etadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida tadbirkorlik subyektlari ulushi dinamikasi barqaror o'sish tendensiyasini ko'rsatmoqda. Faol va yangi tashkil etilgan korxonalarda yuqori ulushi, iqtisodiy salohiyatning rivojlanishi, ishbilarmonlik muhiti va ish bilan bandlikni ta'minlashda asosiy rol o'ynaydi. Shu bilan birga, nofaol va tugatilgan korxonalar yuqori ulushi bozorda qayta tiklanish va iqtisodiy barqarorlik imkoniyatlarini ochib beradi. Demak, Qoraqalpog'istonda tadbirkorlik salohiyati nafaqat iqtisodiy faollikning muhim mezon, balki mintaqaviy barqaror rivojlanishning ham asosiy drayveri hisoblanmoqda. Bu esa tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlovchi chora-tadbirlar hamda investitsiya muhitini rivojlantirishning dolzarbligini ifodalaydi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida tadbirkorlik subyektlarining tarmoqlar bo'yicha tarkibi sohalarning rivojlanishini, ayniqsa salohiyatini baholashda muhim mezon sanaladi. Bunda, Qoraqalpog'iston Respublikasida 2014-2025-yillarda ro'yxatdan o'tgan tadbirkorlik subyektlari qishloq, sanoat, qurilish va xizmat ko'rsatish tarmoqlari tarzida umumiy strukturadagi ulushi va dinamikasini tahlil qildik. Tahlil jarayonida,

tadbirkorlik subyektlari demografiyasini barcha turlari bo'yicha baholash jarayonini amalga oshirdik.

Jumladan, Qoraqalpog'istonda ro'yxatdan o'tgan tadbirkorlik subyektlarining asosiy qismi xizmatlar sohasiga to'g'ri kelmoqda. 2014-yilda xizmatlar sektoridagi ulush 65 foizni tashkil etgan bo'lsa, keyingi yillarda 29-34 foiz oralig'ida o'zgarib, 2025-yilda 34 foizga yetgan. Bu ko'rsatkich xizmatlar sohasining mintaqada tadbirkorlik subyektlarining asosini tashkil qilayotganligini ifodalaydi. Shuningdek, sanoat sohasidagi tadbirkorlik subyektlari ikkinchi muhim tarmoq hisoblanadi. 2014-yilda sanoatdagi tadbirkorlik subyektlari ulushi 11 foiz bo'lgan bo'lsa, 2020-2021-yillarda 16-17 foizga yetgan va o'rtacha 14 foizni tashkil qilgan (2-jadval).

2-jadval.

Qoraqalpog'iston Respublikasida ro'yxatdan o'tgan tadbirkorlik subyektlarining tarmoqlar bo'yicha tarkibi (jamiga nisbatan foizda)¹

| Ko'rsatkich nomi | Jami | Qishloq xo'jaligi | Sanoat | Qurilish | Xizmatlar sohasi |
|------------------|------------|-------------------|-----------|-----------|------------------|
| 2014-yil | 100 | 14 | 11 | 11 | 65 |
| 2015-yil | 100 | 13 | 12 | 12 | 29 |
| 2016-yil | 100 | 14 | 12 | 12 | 28 |
| 2017-yil | 100 | 15 | 12 | 13 | 28 |
| 2018-yil | 100 | 16 | 13 | 12 | 27 |
| 2019-yil | 100 | 16 | 15 | 14 | 26 |
| 2020-yil | 100 | 14 | 16 | 14 | 29 |
| 2021-yil | 100 | 16 | 16 | 12 | 31 |
| 2022-yil | 100 | 16 | 16 | 12 | 32 |
| 2023-yil | 100 | 17 | 16 | 11 | 32 |
| 2024-yil | 100 | 15 | 17 | 9 | 33 |
| 2025-yil | 100 | 15 | 16 | 9 | 34 |
| O'rtacha | 100 | 15 | 14 | 12 | 33 |

Shu bilan birga, qurilish sohasidagi tadbirkorlik subyektlarining ulushi 2014-yilda 11 foizni tashkil qilgan va keyingi yillarda 9-14 foiz oralig'ida tebranib, o'rtacha 12 foizga teng bo'lgan. Bu esa qurilish sohasida faoliyat ko'rsatuvchi subyektlar soni barqaror rivojlanishga ega ekanligini ko'rsatmoqda. Qishloq xo'jaligi tarmog'i subyektlarining ulushi 2014-yilda 14 foiz bo'lgan va 2018-2019-yillarda 16-17 foizga yetgan. O'rtacha ulushi esa 15 foizni tashkil qilib, Qoraqalpog'istonda agrar sektor tadbirkorlikning muhim tarmog'i sifatida namoyon bo'lmoqda. Demak, Qoraqalpog'iston Respublikasida ro'yxatdan o'tgan tadbirkorlik subyektlarining tarmoqlar bo'yicha tarkibi barqaror bo'lib, ustuvor soha xizmat ko'rsatish tarmog'i hisoblanar ekan. Shunday bo'lsada, sanoat va qishloq xo'jaligi tarmog'i subyektlari ham rivojlanib bormoqda. Tadbirkorlikning korxonalar soni bo'yicha salohiyatini baholaganimizda, ro'yxatdan o'tganlarining o'zgarishinigina emas, balki faol bo'lganlarining holatini ham tadqiq qilamiz. Chunki, tadbirkorlik salohiyatini belgilashda ro'yxatdan o'tish emas, uning faoliyat ko'rsatishi, resurslarning samarali bandligi asosida tovar hamda xizmatlar yaratishi muhim sanaladi.

¹ Qoraqalpog'iston Respublikasi Statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Tadbirkorlik subyektlari faolligi iqtisodiy salohiyatning asosiy mezoni hisoblanadi. Jumladan, faol tadbirkorlik subyektlarining asosiy qismi xizmatlar sektoriga to‘g‘ri kelmoqda. 2014-yilda xizmatlar sektorining ulushi 65 foizni tashkil etgan bo‘lsa, keyingi yillarda 26-37 foiz bo‘lib, o‘rtacha 33 foizga teng bo‘lgan.

Sanoat tarmog‘i tadbirkorlik subyektlari ulushi 2014-yilda 11 foiz, 2020-2025-yillarda 16 foiz bo‘lib, o‘rtacha 14 foizni tashkil etgan. Shuningdek, qurilish sektorida faol subyektlar ulushi 2014-yilda 10 foiz, 2016-2020-yillarda 12-15 foiz, keyingi yillarda 8-12 foiz bo‘lgan. Qishloq xo‘jaligi sektorining ulushi 2014-yilda 14 foiz bo‘lib, 2015-2025-yillar 13-16 foiz oralig‘ida o‘zgarib borgan va o‘rtacha 15 foizga teng bo‘lgan (3-jadval).

3-jadval.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida faol bo‘lgan tadbirkorlik subyektlarining tarmoqlar bo‘yicha tarkibi (jamiga nisbatan foizda)¹

| Ko‘rsatkich nomi | Jami | Qishloq xo‘jaligi | Sanoat | Qurilish | Xizmatlar sohasi |
|------------------|------------|-------------------|-----------|-----------|------------------|
| 2014-yil | 100 | 14 | 11 | 10 | 65 |
| 2015-yil | 100 | 13 | 12 | 12 | 29 |
| 2016-yil | 100 | 14 | 12 | 12 | 28 |
| 2017-yil | 100 | 15 | 12 | 13 | 28 |
| 2018-yil | 100 | 16 | 13 | 13 | 27 |
| 2019-yil | 100 | 15 | 15 | 14 | 26 |
| 2020-yil | 100 | 14 | 16 | 15 | 29 |
| 2021-yil | 100 | 16 | 16 | 13 | 31 |
| 2022-yil | 100 | 16 | 16 | 12 | 32 |
| 2023-yil | 100 | 16 | 16 | 11 | 32 |
| 2024-yil | 100 | 15 | 16 | 9 | 34 |
| 2025-yil | 100 | 13 | 14 | 8 | 37 |
| O‘rtacha | 100 | 15 | 14 | 12 | 33 |

Qoraqalpog‘iston Respublikasida nafaol bo‘lgan tadbirkorlik subyektlarining tarmoqlar bo‘yicha tarkibini 2014-2025-yillar bo‘yicha tahlil qilganimizda asosiy ulush yuqoridagi kabi xizmatlarga tegishli bo‘lgan. Xizmatlarning ulush 2014-yilda 63 foiz bo‘lgan va keyingi yillarda 27-33 foiz oralig‘ida bo‘lib, o‘rtacha 31 foizni tashkil qilgan.

Qishloq xo‘jaligi subyektlari ulushi esa, tadqiqot davri davomida o‘rtacha 18 foizga, sanoat esa o‘rtacha 15 foizga hamda qurilish 10 foizga teng bo‘lgan (4-jadval).

4-jadval.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida nafaol bo‘lgan tadbirkorlik subyektlarining tarmoqlar bo‘yicha tarkibi (jamiga nisbatan foizda)²

| Ko‘rsatkich nomi | Jami | Qishloq xo‘jaligi | Sanoat | Qurilish | Xizmatlar sohasi |
|------------------|------|-------------------|--------|----------|------------------|
| 2014-yil | 100 | 11 | 12 | 13 | 63 |
| 2015-yil | 100 | 12 | 12 | 11 | 30 |
| 2016-yil | 100 | 14 | 12 | 11 | 30 |
| 2017-yil | 100 | 17 | 11 | 11 | 27 |

¹ Qoraqalpog‘iston Respublikasi Statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

² Qoraqalpog‘iston Respublikasi Statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

| Ko'rsatkich nomi | Jami | Qishloq xo'jaligi | Sanoat | Qurilish | Xizmatlar sohasi |
|------------------|------------|-------------------|-----------|-----------|------------------|
| 2018-yil | 100 | 18 | 13 | 9 | 27 |
| 2019-yil | 100 | 21 | 13 | 8 | 27 |
| 2020-yil | 100 | 23 | 12 | 8 | 28 |
| 2021-yil | 100 | 22 | 17 | 8 | 28 |
| 2022-yil | 100 | 18 | 18 | 7 | 33 |
| 2023-yil | 100 | 20 | 21 | 6 | 30 |
| 2024-yil | 100 | 18 | 18 | 12 | 27 |
| 2025-yil | 100 | 17 | 19 | 10 | 29 |
| O'rtacha | 100 | 18 | 15 | 10 | 31 |

5-jadval.

Qoraqalpog'iston Respublikasida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlarining tarmoqlar bo'yicha tarkibi (jamiga nisbatan foizda)¹

| Ko'rsatkich nomi | Jami | Qishloq xo'jaligi | Sanoat | Qurilish | Xizmatlar sohasi |
|------------------|------------|-------------------|-----------|-----------|------------------|
| 2014-yil | 100 | 16 | 16 | 11 | 57 |
| 2015-yil | 100 | 11 | 14 | 16 | 23 |
| 2016-yil | 100 | 16 | 14 | 16 | 25 |
| 2017-yil | 100 | 19 | 13 | 14 | 23 |
| 2018-yil | 100 | 23 | 22 | 12 | 19 |
| 2019-yil | 100 | 16 | 23 | 19 | 21 |
| 2020-yil | 100 | 10 | 20 | 15 | 36 |
| 2021-yil | 100 | 22 | 18 | 7 | 37 |
| 2022-yil | 100 | 22 | 18 | 6 | 34 |
| 2023-yil | 100 | 21 | 20 | 5 | 34 |
| 2024-yil | 100 | 13 | 26 | 4 | 31 |
| 2025-yil | 100 | 13 | 18 | 5 | 37 |
| O'rtacha | 100 | 17 | 19 | 11 | 31 |

Qoraqalpog'iston Respublikasida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 2014-2025-yillar davomida tebranuvchi tendensiyaga ega bo'lgan. Jumladan, qishloq xo'jaligi o'rtacha ulushi 17 foiz, sanoat o'rtacha ulush 19 foiz, qurilish o'rtacha ulush 11 foiz hamda xizmatlar sohasining o'rtacha ulushi 31 foizni tashkil qilgan (5-jadval). Shuni alohida ta'kidlaymizki, yangi tashkil etilgan subyektlar rivojlanishi mintaqa investitsiya va ishlab chiqarish salohiyati asosini ko'rsatadi. Chunki, ushbu ko'rsatkichning ijobiy o'zgarishi yoki tarmoqlar bo'yicha tendensiya bevosita kapital qo'yilmalarga bog'liq. Demak, mintaqada tadbirkorlik subyektlarining yangi tashkil qilingan korxonalari soni o'zgarishi mintaqalarda kapital omilining harakatchanligiga bog'liq ekan.

Mintaqada tugatilgan tadbirkorlik subyektlarining o'zgarishi ham muhim hisoblanadi. Chunki, ushbu ko'rsatkich tadbirkorlik salohiyati bilan bog'liq bo'lib, unga salbiy ta'sir qiluvchi asosiy manba sanaladi. Mazkur ko'rsatkichning qishloq xo'jaligidagi umumiy tugatilgan tadbirkorlik subyektlaridagi o'rtacha ulushi 15 foiz, sanoatda ushbu ko'rsatkich o'rtacha qiymati 15 foiz, qurilishda - 12 foiz, xizmatlar

¹ Qoraqalpog'iston Respublikasi Statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

sohasida esa o'rtacha 33 foiz bo'lgan (6-jadval). Mazkur holatga ta'sir qilayotgan asosiy omillardan biri moliyaviy mablag'lar yetishmasligi hisoblanadi. Shuningdek, ushbu salbiy tendensiyaga kadrlar malakasi pastligi, xomashyo taqchilligi hamda ishlab chiqarilgan mahsulotlariga yetarlicha talab shakllanmaganligi ta'sir qilgan. Bu esa, mintaqada moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, hududlar bo'yicha o'sish nuqtalariga mos dasturlarni ishlab chiqishni talab qiladi. Bu esa, mintaqqa investitsion faolligini oshirishda xorijiy investitsiyalarni ham keng jalb etish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu bois, Qoraqalpog'iston Respublikasida investitsion jozibadorlikni oshirish uchun infratuzilmani rivojlantirishga e'tibor qaratish zarur.

6-jadval.

Qoraqalpog'iston Respublikasida tugatilgan tadbirkorlik subyektlarining tarmoqlar bo'yicha tarkibi (jamiga nisbatan foizda)¹

| Ko'rsatkich nomi | Jami | Qishloq xo'jaligi | Sanoat | Qurilish | Xizmatlar sohasi |
|------------------|------------|-------------------|-----------|-----------|------------------|
| 2014-yil | 100 | 12 | 12 | 8 | 69 |
| 2015-yil | 100 | 13 | 11 | 8 | 35 |
| 2016-yil | 100 | 10 | 13 | 12 | 32 |
| 2017-yil | 100 | 12 | 11 | 13 | 29 |
| 2018-yil | 100 | 12 | 10 | 15 | 27 |
| 2019-yil | 100 | 15 | 12 | 13 | 26 |
| 2020-yil | 100 | 16 | 14 | 14 | 28 |
| 2021-yil | 100 | 19 | 12 | 21 | 26 |
| 2022-yil | 100 | 23 | 16 | 10 | 30 |
| 2023-yil | 100 | 18 | 18 | 11 | 34 |
| 2024-yil | 100 | 16 | 24 | 6 | 33 |
| 2025-yil | 100 | 16 | 22 | 9 | 31 |
| O'rtacha | 100 | 15 | 15 | 12 | 33 |

Tadbirkorlik subyektlari demografiyasi, ya'ni ro'yxatdan o'tgan, faol, nofaol, yangi tashkil etilgan va tugatilgan korxonalar soni o'sish dinamikasi mintaqqa iqtisodiyotining tadbirkorlik salohiyatiga baho berishda muhim mezonlardan biri hisoblanadi. Chunki, yuqoridagi tahlillarimizda korxonalar demografiyasini tarmoqlar kesimida tahlil qildik. Ushbu holat, umumiy tadbirkorlik subyektlarining tarmoqlar bo'yicha tarkibiy tuzilishi haqida axborot bermoqda. Lekin, tadbirkorlik subyektlari soni o'zgarishi va o'sishini esa aks ettirmaydi. Shu bois, mintaqadagi tadbirkorlik subyektlari soni o'sishini ham alohida baholaymiz.

Jumladan, iqtisodiyotdagi ro'yxatdan o'tgan korxonalar 2015-2025-yillar davomida o'rtacha 109 foizga o'sgan. Bu esa, ular sonini barqaror darajada o'zgarib borayotganligini ifodalamoqda. Ayniqsa, 2019-2021-yillarda ushbu ko'rsatkich 117-120 foizli o'sishga ega bo'lgan (7-jadval). Ular tarkibidagi tadbirkorlik subyektlarining mazkur davrdagi o'sish sur'atining o'rtacha ko'rsatkichi 110 foiz bo'lib, nisbatan yuqori holatga ega. Bu esa, tadbirkorlar sohasida ro'yxatdan o'tish jarayoni yuqori sur'atlarga egaligini hamda mintaqada tadbirkorlik muhiti qo'llab-quvvatlanayotganini ko'rsatmoqda.

¹ Qoraqalpog'iston Respublikasi Statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Iqtisodiyotdagi faol korxonalar o'rtacha o'sishi 106 foiz, uning tarkibidagi tadbirkorlik subyektlari o'sish sur'ati esa 108 foizga teng bo'lgan. Shuni alohida ta'kidlaymizki, 2024-2025-yillar davomida ushbu ko'rsatkichlarning o'tgan yilga nisbatan o'zgarishi pasayish tendensiyasiga ega. Buning sababini mintaqada 2022-2023-yillar davomida xorijiy kapitalning keng ko'lamli kirib kelishi hisobiga yuqori sur'atlarda tadbirkorlik subyektlari paydo bo'lganligi bilan bog'laymiz. Nofaol korxonalarining tadqiqot davridagi o'rtacha o'sish sur'ati 148 foiz, tadbirkorlik subyektlaridagi soni o'rtacha o'sishi esa, 150 foiz bo'lgan. Ayniqsa, oxirgi yillarda ularning o'zgarishi keskin ortib ketgan. Bu holat, faol korxonalar sonining pasayishi bilan bog'liq.

Shu bilan birga, yangi tashkil qilinganlarning umumiy iqtisodiyotdagi va ular tarkibidagi tadbirkorlarning o'sish sur'ati mos ravishda 112 foizni, tugatilganlari esa o'rtacha 120 va 126 foizlarni ifodalamoqda.

Demak, Qoraqalpog'iston Respublikasida, korxonalar demografiyasining ijobiy ko'rsatkichlariga (ro'yxatdan o'tgan, faol va yangi tashkil etilgan) nisbatan salbiy mezonlar (nofaol, tugatilgan) yuqori o'sishga ega bo'lib, salbiy tendensiyalar ustuvor ekanligini aniqladik.

Shu bois, mintaqada tadbirkorlik subyektlari bo'yicha salohiyatni oshirish, uning ijobiy indikatorlarining barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish, investitsiya muhiti va infratuzilmani rivojlantirish talab etiladi.

7-jadval.

Qoraqalpog'iston Respublikasida korxonalar demografiyasi va tadbirkorlik subyektlari o'zgarishi (o'tgan yilga nisbatan o'sish hisobida)¹

| Ko'rsatkich nomi | 2015-yil | 2016-yil | 2017-yil | 2018-yil | 2019-yil | 2020-yil | 2021-yil | 2022-yil | 2023-yil | 2024-yil | 2025-yil | O'rtacha |
|--|----------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|------------|
| Ro'yxatdan o'tgan iqtisodiyotdagi korxonalar | 103 | 100 | 101 | 105 | 111 | 117 | 120 | 110 | 112 | 117 | 101 | 109 |
| Ro'yxatdan o'tgan tadbirkorlik subyektlari | 104 | 100 | 97 | 107 | 112 | 122 | 126 | 111 | 114 | 119 | 101 | 110 |
| Faol bo'lgan iqtisodiyotdagi korxonalar | 108 | 103 | 103 | 106 | 113 | 118 | 119 | 108 | 113 | 97 | 81 | 106 |
| Faol bo'lgan tadbirkorlik subyektlari | 111 | 103 | 100 | 109 | 114 | 122 | 125 | 109 | 114 | 97 | 78 | 108 |
| Nofaol bo'lgan iqtisodiyotdagi korxonalar | 73 | 76 | 74 | 83 | 69 | 98 | 163 | 162 | 107 | 547 | 178 | 148 |
| Nofaol bo'lgan tadbirkorlik subyektlari | 72 | 76 | 71 | 77 | 71 | 98 | 170 | 165 | 109 | 564 | 179 | 150 |
| Yangi tashkil etilgan iqtisodiyotdagi korxonalar | 92 | 91 | 113 | 132 | 147 | 146 | 118 | 98 | 100 | 144 | 51 | 112 |
| Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari | 94 | 90 | 113 | 127 | 132 | 167 | 122 | 97 | 100 | 145 | 50 | 112 |

¹ Qoraqalpog'iston Respublikasi Statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

| Ko'rsatkich nomi | 2015-yil | 2016-yil | 2017-yil | 2018-yil | 2019-yil | 2020-yil | 2021-yil | 2022-yil | 2023-yil | 2024-yil | 2025-yil | O'rtacha |
|---------------------------------------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|
| Tugatilgan iqtisodiyotdagi korxonalar | 79 | 133 | 105 | 91 | 86 | 106 | 71 | 309 | 63 | 131 | 149 | 120 |
| Tugatilgan tadbirkorlik subyektlari | 78 | 136 | 99 | 82 | 96 | 106 | 60 | 379 | 63 | 134 | 150 | 126 |

Yuqoridagi tadqiqotlarimizga asoslanib, mintaqadagi umumiy korxonalar va ularga tadbirkorlik subyektlari o'zgarishi ta'sirini tadqiq qildik (8-jadval).

8-jadval.

Qoraqalpog'iston Respublikasida korxonalar demografiyasi va tadbirkorlik subyektlari o'zgarishining ekonometrik tahlil natijalari¹

| Regression bog'liqlik nomi | Regression model | Regression model sifat mezonlari | Model o'zgaruvchilarining izohi |
|--|---|--|---|
| Ro'yxatdan o'tgan iqtisodiyotdagi korxonalar tadbirkorlik subyektlari o'zgarishi bog'liqligi | $IK_t^{RO'} = 25,694 + 0,754 * TS_t^{RO'}$ | R2=0,986 F= 318,10 P-qiymati=0,0000 | Bunda: $IK_t^{RO'}$ - mintaqadagi jami ro'yxatdan o'tgan korxonalar o'sish sur'ati $TS_t^{RO'}$ - mintaqadagi jami ro'yxatdan o'tgan tadbirkorlik subyektlari o'sish sur'ati |
| Faol bo'lgan iqtisodiyotdagi korxonalar tadbirkorlik subyektlari o'zgarishi bog'liqligi | $IK_t^{Faol} = 18,329 + 0,818 * TS_t^{Faol}$ | R2=0,991 F= 494,39 P-qiymati=0,0000 | Bunda: IK_t^{Faol} - mintaqadagi jami faol korxonalar o'sish sur'ati TS_t^{Faol} - mintaqadagi jami faol tadbirkorlik subyektlari o'sish sur'ati |
| Nofaol bo'lgan iqtisodiyotdagi korxonalar tadbirkorlik subyektlari o'zgarishi bog'liqligi | $IK_t^{Nofaol} = 3,641 + 0,962 * TS_t^{Nofaol}$ | R2=0,9998 F= 25909,71 P-qiymati=0,0000 | Bunda: IK_t^{Nofaol} - mintaqadagi jami nofaol korxonalar o'sish sur'ati TS_t^{Nofaol} - mintaqadagi jami nofaol tadbirkorlik subyektlari o'sish sur'ati |
| Yangi tashkil etilgan iqtisodiyotdagi korxonalar tadbirkorlik subyektlari o'zgarishi bog'liqligi | $IK_t^{YT} = 9,968 + 0,907 * TS_t^{YT}$ | R2=0,963 F= 116,30 P-qiymati=0,0000 | Bunda: IK_t^{YT} - mintaqadagi jami yangi tashkil etilgan korxonalar o'sish sur'ati TS_t^{YT} - mintaqadagi jami yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari o'sish sur'ati |
| Tugatilgan iqtisodiyotdagi korxonalar tadbirkorlik subyektlari o'zgarishi bog'liqligi | $IK_t^{Tug} = 24,39 + 0,763 * TS_t^{Tug}$ | R2=0,995 F= 905,03 P-qiymati=0,0000 | Bunda: IK_t^{Tug} - mintaqadagi jami tugatilgan korxonalar o'sish sur'ati TS_t^{Tug} - mintaqadagi jami tugatilgan tadbirkorlik subyektlari o'sish sur'ati |

¹ Qoraqalpog'iston Respublikasi Statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Bunda ekonometrik tahlil usullaridan foydalandik. Dastlab, iqtisodiyotdagi ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi bog'liqlikni baholadik. Jumladan, tadbirkorlik subyektlari o'sishi ro'yxatdan o'tgan korxonalarining o'sishi bilan juda yuqori darajada bog'liq. Ya'ni, tadbirkorlik subyektlarining 1 foizga o'sishi, ro'yxatdan o'tgan korxonalarni 0,75 foizga o'sishini ta'minlamoqda.

Faol tadbirkorlik subyektlarining 1 foizga o'sishi natijasida umumiy mintaqadagi korxonalar faollik darajasi 0,818 foizga o'smoqda. Lekin, salbiy holatni o'z ichiga olgan nafaol tadbirkorlik subyektlarining o'zgarishi yuqori ta'sirga ega bo'lmoqda. Ya'ni, nafaol tadbirkorlikning 1 foizga o'zgarishi umumiy mintaqadagi korxonalarni 0,962 foizga mos yo'nalishda o'zgarishga olib kelmoqda.

Tadbirkorlikning yangi tashkil qilingan subyektlarini 1 foizga o'zgarishi korxonalar sonini 0,907 foizga o'sishini ta'minlamoqda. Lekin, tugatilgan korxonalar bo'yicha holat ijobiy bo'lsada, avvalgi turlarga nisbatan bir oz past bog'liqlikni aks ettirgan. Jumladan, tugatilgan tadbirkorlik subyektlarining 1 foizga o'zgarishi umumiy mintaqadagi korxonalar sonini 0,763 foizga oshirmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari Qoraqalpog'iston Respublikasida tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiyotdagi ulushi sezilarli darajada yuqori ekanligini va ularning hududiy rivojlanishda muhim o'rin tutishini ko'rsatdi. Ro'yxatdan o'tgan va faol korxonalar tarkibida tadbirkorlikning ustunligi iqtisodiy tizimda xususiy sektor rolining kuchayib borayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, nafaol va tugatilgan subyektlar ulushining oshib borishi ayrim tizimli muammolar mavjudligini anglatadi. Xususan, moliyaviy resurslar yetishmasligi, ishlab chiqarish omillariga cheklangan kirish hamda bozor talabining yetarli shakllanmaganligi ushbu jarayonlarga ta'sir ko'rsatgan.

Tarmoqlar kesimidagi tahlillar xizmatlar sohasi yetakchi yo'nalish ekanligini, sanoat va qishloq xo'jaligi esa bosqichma-bosqich rivojlanayotganini ko'rsatdi. Bu esa iqtisodiyot tarkibida xizmatlar ulushi ortib borayotganini, ishlab chiqarish sohalarida esa qo'shimcha rag'batlantirish zarurligini bildiradi. Ekonometrik natijalar korxonalar demografiyasi ko'rsatkichlari o'rtasida yuqori darajadagi o'zaro bog'liqlik mavjudligini tasdiqladi, bu esa tadbirkorlik subyektlari dinamikasi umumiy iqtisodiy jarayonlarga bevosita ta'sir qilishini anglatadi.

Mazkur natijalardan kelib chiqib, bir qator amaliy takliflar shakllantirildi. Avvalo, tadbirkorlik subyektlari uchun moliyaviy resurslarga kirishni kengaytirish, jumladan, kreditlash va mikromoliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Shuningdek, hududiy infratuzilmani takomillashtirish, logistika va ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish orqali biznes yuritish sharoitlarini yaxshilash zarur. Yangi tashkil etilgan korxonalarni qo'llab-quvvatlash va ularning faoliyatini davom ettirishga qaratilgan institutsional mexanizmlarni kuchaytirish ham muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, tadbirkorlik faoliyatida inson kapitalining rolini oshirish maqsadida malaka oshirish va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish tizimini takomillashtirish lozim.

Korxonalar demografiyasi asosida olib borilgan tahlil mintaqada iqtisodiy jarayonlarni chuqurroq anglash, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf

etishga qaratilgan aniq choralarni ishlab chiqishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abulqosimov X. Makroiqtisodiy tartibga solish va O‘zbekistonning barqaror rivojlanishi. Monografiya. -T.: Akademiya, 2011. -188 b.

2. Грачев, М.В. Инновационная экономика: Монография Журавлев, П.В. Управление персоналом в предпринимательских организациях / П.В. Журавлев. - М.: Российская экономическая академия, 1998. - С. 224.

3. Садыков А.М. Основы регионального развития: теория, методология, практика / Монография. А.М.Садыков: Ташкент, «Iqtisod-Moliya», 2005. - 280 с.

4. Назаров Ш.Х. Методологические аспекты повышения конкурентоспособности регионов / Монография. Ш.Х. Назаров. Ташкент: IFMR, 2014. -212 с.

5. Мырзанов Б.Ж., Таджиев Т.М. Қорақалпоғистон Республикаси саноатининг ҳудудий ва таркибий салоҳиятини баҳолаш // Иқтисод ва молия / Экономика и финансы. №9, 2022. 46-51 б.

6. McEneaney T.S. Unlocking Your Entrepreneurial Potential: Marketing, Money, and Management Strategies for the Self-funded Entrepreneur. Bloomington, IN: iUniverse Publishing, 2011.

7. Leonenko N.A. Innovation Potential of the Region as a Basis of Reproduction of Economic Potential // Business-Inform. 2013. No 11. P. 138-142; Szerb L., Acs Z.J., Autio E., Ortega-Argilés R., Komlosi E. REDI: The Regional Entrepreneurship and Development Index - Measuring Regional Entrepreneurship. Final Report / European Commission. Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2013.

8. UNCTAD. Индекс производственного потенциала для проведения обоснованной политики (издание Организации Объединенных Наций, Женева). Женева, 19-30 июня 2023 года.

9. Беломестнов В. Г., Ябжанова Т. Г. Потенциал развития экономики региона // Вестник Бурятского Государственного Университета. 2015. Вып., 2а. с.75-81.

10. Верховская, О.Р. Глобальный мониторинг предпринимательства: Россия 2010. / Дорохина, М.В. - СПб: Высшая школа менеджмента Санкт-Петербургского государственного университета, 2011. - 54 с.

11. Низомов А.Б., Намозова Н.Дж., Амонов У.Н. Микроиқтисодиёт. -Т.: Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти, 2000 й. - 21 б.; Норова С.Ю. Иқтисодий салоҳият ва минтақада иқтисодий ўсишни таъминлашнинг илмий-назарий асослари // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2021-yil. 147-153 б.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, aprel, 4-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**